

Akademik litseyda 1-kurs qizlari o'rtasida "Balli qizlar" ko'rik-tanlovi o'tkazildi

"Samarqand davlat chet tillar instituti akademik litseyida 1-kurs qizlari o'rtasida o'tkazilgan **"Balli qizlar"** ko'rik-tanlovi nafaqat mahorat, balki go'zallik, nozik did va ephillikning ham yorqin namunasiga aylandi.

Ushbu tanlov **akademik litsey xotin-qizlar raisasi U.Mamatjonova tomonidan tashkillashtirildi** va ishtirokchilar o'zlarini tanishtirish, bo'yinboq bog'lash, gul yasash, soch o'rish va erkin mavzu shartlari bo'yicha bellashib, har bir bosqichda o'z qobiliyatlarini namoyon etishdi. Hakamlar hayati har bir ishtirokchini diqqat bilan kuzatib, ularning ijodkorligi, chiroyli taqdimoti va mahoratini inobatga olgan holda baholashdi.

Tadbir yakunida faol va iqtidorli qizlar turli nominatsiyalar bo'yicha faxriy yorliqlar bilan taqdirlandi. Ushbu tanlov qizlarning istedodini yuzaga chiqarish, ularni yanada ilhomlantirish va milliy an'analarimizni asrab-avaylash yo'lida muhim ahamiyat kasb etdi.











SamDChTI akademik litseyi axborot xizmati